

Boshlang‘ich sinflarda masal janri ustida ishlash

N.O.Safarova,

Buxoro davlat pedagogika instituti professori,

T.M.Mustafoyeva,

Buxoro davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi

Annotasiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda masal janri va uning ta’limiy - tarbiyaviy ahamiyati, masal janriga hissa qo‘sishgan adiblar haqida so‘z boradi. Masal janrini o‘qitish bolalar dunyoqarashini shakllantirishi, boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan buyuk masalnavis adibning mashhur masallari tahlili bu maqolaning mazmunini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: masal, majoz, Ezop, obraz, xarakter, adib, pand-nasihat, ramziy

Masal (arab. — namuna, misol) — didaktik adabiyot janri. Ta’limiy harakterdagi, aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi Masalga hajviy ruh bag‘ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarta yaqin bo‘lib, xotimasi, ta’limiy xulosasi maqol, hikmatli so‘z va iboralar tarzida bo‘ladi. Masalning materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqa da ham qo‘llanishi mumkin. Masal nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlarda –hayvonlar, jonivorlar va o‘simgiliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan qissadan hissa -ibratlari xulosa keltiriladi. Ramzli hikoyadan farqli ravishda Masalning o‘z an’anaviy obrazlar va motivlar doirasi mavjud bo‘ladi (hayvonlar, o‘simgiliklar, qushlar, muayyan tizimdagisi odamlar va hokazo).

Masal janrini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda dangosalik, yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik, qo‘pollik, yalqovlik, beparvolik va qo‘rslik kabi illatlarni yo‘q bo‘lishi uchun yordam beradi. Bu kabi illat yoki nuqsonlarni har bir o‘quvchida yo‘q bo‘lishi uchun turli xil mavzudagi masallar bilan tanishtirish va shu orqali kitobxonlikni ham shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Masal janrini asosida o‘rgatish

orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish ham ko'zda tutiladi, chunki, ta'lif jarayonida ular o'z fikrlarini mustaqil bayon qiladilar, tafakkur qilish jarayoni kechadi. Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan o'quvchilarning nutqini ravon qilish juda muhimdir, chunki mazku bolalarning hozirgi zamon talabi asosida jamiyatimiz ishlarida faolligini ta'minlashda ular nutqining ravonligi katta ahamiyatiga ega. Nutq - insonlararo aloqa vositasi bo'lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko'nikmalarni puxta eggalashga o'rgatish davr talabidir. Albatta, masallarda ham umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanadi, badiiy-estetik qarashlar namoyon etiladi.

Bu janrning xalq poetik ijodiga yaqinligi, uni avvalo donishmand xalq yaratganligi, so'ng esa yozuvchilar, shu jumladan Ezop o'z ijodida takomillashtirgani xususida so'z boradi: "Masal janri II asrlarda Babriy, Rimda Fyodr (eramizning I asri) Avian (IV asr) tomonidan rivojlantirildi. Masal janri taraqqiyotiga fransuz masalchisi Lafonten (XVII), rus masalchisi I.A.Krilov, Daniya masalchisi Golberg (XVIII), nemis masalchisi Lessing(XIX) katta hissa qo'shganlar"-deyiladi. Mashhur masalnavis Gulxaniyning "Tashbaqa bilan Chayon", "Maymun bilan Najor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi.Ularda do'stlik, sadoqat, mehr-oqibat, har doim qo'lidan keladigan ish qilishni, aksincha, qo'lidan kelmaydigan ishlarga qo'l urmaslik kabi tuyg'ulari aks ettirilgan.

O'quvchilar faqat masalni o'qibgina qolmasdan tahlil qilish ko'nikmasini ham shakllantirish kerak. Agar o'qigan asarini ongli ravishda tushuna bilsa, asarlarni anglab yetishida hech qanday muammo bo'lmaydi. Shunday ekan endi Ezop va uning massalari haqida aytadigan bo'lsak, 4-sinf o'qish savodxonligi darsligida Ezop va uning massalari berilgan .

Ezop-yunon masalchisi, rivoyatlarga qaraganda u frigiyalik qul bo'lib, so'ng ozod qilingan Milodiy X-XV asrlarda qo'lyozmalarda 300dan ortiq massalari saqlab qolning Ezop masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari (asosan, hayvonlar) o'ta shartli, voqealar ixcham bayon qilingan. Tili sodda, jonli tilga yaqin. Ezop masallari syujeti Yevropa masalchiligi syujetining asosini tashkil etgan. Lotin masalchisi Fedr (1-asr) va yunon masalchisi Babriy (2-asr) dan tortib J. Lafonten va I. A. Krilovgacha Ezop masallari syujetini davrga moslab ijodiy rivojlantirganlar.

4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida "Tovuq bilan Tulki"masalı berilgan .Bu masalda tulking yirtqichlar bilan qushlar o‘rtasida tinchlik bitimi imzolangani ,uning tovuqqa bo‘lgan mug‘ombirligi haqida aytilgan ya’ni shu orqali tovuqni yemoqchi bo‘lgani batafsil yozilgan.Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bu masalning asosiy mazmuni - to‘satdan taklif qilingan do‘silikdan ehtiyot bo‘lishdir. Bu masal bolalarda har kim bilan do‘sit tutunavermaslik,hammagaga ham ishonmaslik kerakligini tulki va tovuq majoziy obrazlarda bilib olishadi. Tulki - ikkiyuzlamachi, yolg‘onchi bo‘lgan insonlar timsolida qiyoslangan.

Ezopning masallarini o‘quvchilarga oson tarzda tahlil qilishni va tushunib mag‘zini chaqishni o‘rgatish o‘qituvchining vazifasidir. “Yovvoyi echkilar va cho‘pon” masalini o‘qitish orqali o‘quvchilar juda ko‘p ma’lumotlarni olishi va hayotda ham shularga asoslangan holda yashashga o‘rgatadi. Masalda cho‘pning echkilariga qo‘silib,yovvoyi echkilar kelib qo‘shilishadi. Va shu bilan ertasiga yomg‘ir yog‘ganligi sababli echkilarni yaylovga olib chiqmaydi.Yovvoyi echkilarga juda ko‘p yem-xashak beradi cho‘pon. Lekin o‘zining echkilariga ozgina qilib beradi. Shunda echkilar xafa bo‘ladi. Ertasiga hamma echkini yaylovga yuborganda yovvoyi echkilar qochib,faqat eski echkilari qoladi. Shunda cho‘pon ularga qarata “ey echkilar men sizlarga o‘zimning echkilardan ham yaxshi qaragandim, lekin sizlar vafo qilmay qochib ketdinglar”,- deb o‘ksinib gapiradi. Qissadan hissa shuki, inson hech qachon yangi do‘sit topganda eski do‘siti unutmaslik kerak.Bunda echkilar timsolida ikkita ma’nioni anglash mumkin. Ya’ni birinchisi o‘zining manfaati uchun harakat qiladigan insonlar, ikkinchisi esa sadoqatli do‘sit timsoli gavdalaniadi.Bu bilan o‘quvchilarga har doim do‘sitga vafodor bo‘lish, yangi do‘sitar ko‘proq topish kerak, lekin eski do‘sitlarni ham unutmaslik kerakligini o‘rgatadi. Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda astasekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofkillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g’urur, matonat, mehr-oqibat, do‘silik, ezbilik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Masaldagi qissadan hissa o‘quvchi matndagi e’tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o‘qib o’tib

ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi. Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o'qiydilar.

Oqish kitobidan o'rin olgan "Qaysar buzoqcha" (O. Qo'chqorbekov) masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida buzoqchaning o'limi bilan tugaydi. Bundan xulosa" Ayrilganni ayiq yer, Bo'linganni bo'ri yer" maqoli orqali ifodalash mumkin. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo'shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham to'dasidan ajralib, bo'riga duch keladi, ya'ni ko'ngilsiz voqeа yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan. Masalning mazmuniga to'xtalmasdan, bosh qahramon azmuniga to'xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xattiharakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lismeni, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashinib turishi uni bir maromda o'qishga xalaqit beradi. SHuning uchun ifodalni o'qishga yetarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim. Masal tahlil qilinayotganda, voqeа rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. CHunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalilanadi. Masalni ifodalni o'qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur.

Boshlang'ich sinflarda masallarni bolalarga o'qitish va o'rgatish ularning dunyoqarashlarini shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, masal janri bolalarning tafakkurini, ularning dunyoqarashlarini shakllantirishda, shuningdek o'zlaridagi yomon illatlarni

yo‘q qilishda, jamiyat uchun foydali,yetuk shaxs bo‘lib yetishishlarida va hozirgi kunda yosh avlodni shu masalnavis adiblarning masallari orqali ularni kelgusi hayotga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi .

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.K.Qosimova va boshqalar .Ona tili o‘qitish metodikasi.
- 2.Tarjima Qodir Mirmuhammedov "Ezop masallari "2019
- 3.O‘qish savodxonligi darsliklari."Novda "nashriyoti 2023
4. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiatni, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005
5. Safarova N.O. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi. "O’ZBEKİSTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH İSTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.



**Research Science and
Innovation House**